

Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 293-sonli qarori asosida faoliyat olib boradi.

Bo‘limning asosiy vazifalari:

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida kadrlar tayyorlash sifati va o‘quv jarayoni samaradorligini xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

bo‘lim faoliyati bilan bog‘liq huquqiy-me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish;

idoraviy bo‘ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat‘iy nazar barcha turdagi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazishni tashkil etish va amalga oshirish;

nodavlat ta‘lim muassasalarining faoliyatini litsenziyalash uchun ularning hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish va tegishli xulosa tayyorlash;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi davlat ta‘lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlarini belgilangan tartibda tasdiqlash uchun ekspertizadan o‘tkazish;

o‘quvchilar bilimlarining davlat ta‘lim standartlariga muvofiqligini tahlil qilish; rivojlangan xorijiy davlatlarning ta‘lim muassasalari attestatsiyasi va akkreditatsiyasi borasidagi tajribalarini o‘rganish.

Bo‘limda amalga oshirilgan ishlar

Bo‘lim tomonidan 2010-2011 o‘quv yilida 116 ta akademik litsey attestatsiyadan o‘tkazish tashkil etildi va o‘tkazildi. 2011-2012 o‘quv yilida 73 ta ta tibbiyot va 70 ta pedagogik kollejlari attestatsiyasi tashkil etildi va o‘tkazildi.

Bo‘lim faoliyatida amal qiluvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi [293-sonli](#) qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalarini davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi [21-sonli](#) qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 14 iyulda 1836-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan «O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim

muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish mezonlari va texnologiyalari bo'yicha yo'riqnoma».